



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2026-yil 21-iyul

№ 11

Toshkent sh

Hay'at raisi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev
Ishtirok etdilar: Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov,
D.Xodjiyaxmedov, A.O'razkeldiyev, M.Nadjimov

Qatnashganlar:

Respublika studiyasida: O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hay'at a'zolari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari, Ommaviy axborot vositalari xodimlari (*ro'yxat bo'yicha*)

Hududiy studiyalarda: Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilish-invest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari direktorlari, Baliqchilikni rivojlantirish markazining rahbar va o'rinbosarlari hamda "O'zsuvqurilish" AJ tarkibidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar rahbarlari (*ro'yxat bo'yicha*)

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan hay'at yig'ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti hay'at a'zolari tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

I. Vazirlik tizimida 2026-yilning I choragi davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida

(Xamrayev, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Taxirov, Fayzillayev,
Turdiboyev, Siddiqov, Sadinov, Rizzayev, Radjabov, Alimov, Ataqllov,
Qurbonov, Tursunov, Nurmetov, Xamrayev)

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev, Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov va hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari tomonidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, hisobot davrida qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning

ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay‘at yig‘ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan joriy yilning I yarim yilligiga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar ***qoniqarsiz deb topilsin.***

Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida bayon etilgan ko‘rsatma va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas‘uliyat va javobgarlikni, har bir ijro intizomiga qat‘iy va so‘zsiz rioya etmaslik holatlari uchun ***intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o‘tilsin.***

2. Vazirning birinchi o‘rinbosari - Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov va vazir o‘rinbosari O‘.Sheraliyevlarga ijro intizomiga rioya etmaganligi hamda “Ijro.gov.uz” tizimidagi iyun oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan Davlat rahbarining topshiriqlari ijrosini ta‘minlash borasida talabchanlikni susaytirib yuborganligi uchun ***ogohlantirish e‘lon qilinsin.***

Belgilab qo‘yilsinki, kelgusida ijro intizomiga rioya qilinmaganda, hujjatlarda bayon etilgan ko‘rsatma va topshiriqlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta‘minlamagan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga rioya qilinmagan taqdirda vazir o‘rinbosarlarining ish faoliyatini ko‘rib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi.

3. 2026-yilning I yarim yilligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlashga mas‘uliyatsizlik bilan yondashmaganligi, ushbu topshiriqlar ijrosini tizimli ravishda tashkil etmaganligi uchun vazirlikning 2026-yil 8-maydagi “Mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida”gi 102-k sonli buyrug‘i bilan Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi boshlig‘i J.Kdirbayev hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ-58-sonli qarorining 7-ilovasi 17.3-bandi topshirig‘i ijrosini ta‘minlamaganligi uchun Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining 2026-yil 7-iyuldagi “Mehnat shartnomasi bekor qilish hamda vaqtincha vazifa yuklash to‘g‘risida”gi 29-k-sonli buyrug‘i bilan “Navoiysuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori U.Nazarovning ***lavozimidan ozod etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.***

4. “Ijro.gov.uz” tizimidagi iyun oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5055-son qarori 13-ilova 2.8-bandi topshirig‘i ijrosini ta‘minlamaganligi uchun Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Irrigatsiya tizimlari va yirik gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish boshqarmasi boshlig‘i v.b N.Xudoyberdiyevga ***O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq “hayfsan” e‘lon qilinsin.***

5. Suv omborlarining texnik holatini yaxshilash va ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash yuzasidan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida bayon etilgan ko‘rsatma va topshiriqlarning ijrosini to‘liq darajada ta‘minlamaganliklari uchun Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza

boshqarmasi boshlig'i B.Alimov, Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi boshlig'i M.Turdiyevlarga ***so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-son qarori bilan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashda qoloqlikka yo'l qo'yganligi uchun Sho'manoy, Qo'ng'iro't, Chimboy, Jalaquduq, Ulug'nor, Qo'rg'ontepa, Sh.Rashidov, Mirzacho'l, Navbahor, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Muzrabot, Sayxunobod, Sirdaryo, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Chinoz, Yangiyo'l, Dang'ara, Qo'shtepa, O'zbekiston, Qo'shko'pir va Yangiariq tumanlari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga ***so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.***

Belgilab qo'yilsinki, ushbu topshiriqlarning ijrosini joriy yilning 1-oktyabriga qadar ta'minlamaganda hamda kelgusida ijro intizomiga rioya qilinmagan taqdirda ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq ***mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.***

6. Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari D.Aliqulova hamda Yuridik xizmat va murojaatlar bilan ishlar boshqarmasi boshlig'i B.Rajabovlar mazkur hay'at yig'ilishi qarori bilan intizomiy javobgarlikka tortilgan rahbarlarga nisbatan qo'llanilgan jazoni ***2 kun muddat ichida*** buyruq bilan rasmiylashtirsinar.

7. Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (R. Rahimov) xodimlari tomonidan Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hamda Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi Suv resurslaridan foydalanish boshqarmasi (A. Mangliyev), Suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (A. Tursunaliyev) bilan hamkorlikda "Suv hisobi" axborot tizimining "Kunlik suv" moduliga suv iste'molchilariga yetkazib berilgan kunlik suv miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarning o'z vaqtida, to'liq va ishonchli kiritilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar, suv omborlari va sel-suv omborlari hamda xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga:

2 kun muddatda joylarda 2026-yilning yilning I yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash, vazirlikka taqdim qilish hamda uning ijrosi haqida har oy yakuni bilan vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilib borish;

3 kun muddatda 2026-yil hosili uchun ekilgan paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish bo'yicha moliyalashtirilgan maydonlarda qurilish ishlarini yakunlash;

4 kun muddatda "Davlat suv kadastri" axborot tizimiga joylashtirilgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazish hamda mavjud shaxsiy kabinetlar orqali obyektlarning nomlash, qayta nomlash va tegishli toifalarga ajratish ishlarini yakunlash;

5 kun muddatda paxta maydonlarida sug'orishni samarali tashkil etish uchun qo'shimcha ko'chma egiluvchan quvurlarni xarid qilish bo'yicha belgilangan reja ko'rsatkichlarni bajarish va egiluvchan quvurlardan foydalanish choralarini ko'rish;

10 kun muddatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga ko'maklashuvchi suv xo'jaligi xodimlaridan iborat servis xizmat ko'rsatish guruhlarini faoliyatini samarali tashkil etgan holda o'tgan yillarda joriy qilingan texnologiyalardan 2026-yilda ham samarali foydalanish maqsadida ularni qayta ishga tushirish;

15 kun muddatda moliyalashtirilgan maydonlarda qurilish ishlarini boshlamagan yoki texnologiyalarni ishga tushirishni kechiktirayotgan quruvchi korxonalar ro'yxatini shakllantirish va hududiy prokuratura organlariga taqdim etish;

1-avgustga qadar tizim tashkilotlar hisobidagi nosoz suv o'lchash vositalarini tarirovka va metrologik qiyoslash ko'rigidan o'tkazish va keyingi choraklarda xarid qilinishi rejalashtirilgan suv o'lchash vositalarini xarid qilinishini ta'minlash;

10-avgustga qadar har haftada "Karyera kuni"ni o'tkazish orqali oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilish bo'yicha joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash va vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilish;

har oy yakuni bilan gidrometriya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, suv o'lchash qurilmalari va vositalarini ta'mirlash, suv o'lchash, suv o'lchash reykasi va gidrometrik shtangalarni sotib olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot berib borish;

har oy yakuni bilan keyingi oyning 3 sanasiga qadar iqtisod qilingan elektr energiyasi miqdorlari bo'yicha vazirlikka tegishli hisob-kitoblar bilan asoslangan hisobotlarni taqdim qilish;

har oyda elektr energiyasi uchun haqiqatda ajratilgan mablag'lar bo'yicha nasos stansiyalarni ishlatish yuzasidan tegishli grafiklarni ishlab chiqib, viloyat hokimning qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlatish va shu asosida nasos stansiyalarni ishlatilishini so'zsiz ta'minlash;

nasos stansiyalarga o'rnatilishi rejalashtirilgan elektrodvigatel, quyosh elektr panellari, quyosh suv isitish qurilmalari, kondensator qurilmalarini hamda chastota o'zgartiruvchi qurilmalarni sotib olinishini va o'rnatilishini to'liq ta'minlash;

doimiy ravishda ishlayotgan quduqlarni nazorat qilib, unga bog'langan maydonlarga suv tejovchi sug'orish texnologiyalari joriy qilmagan bo'lsa ularni darhol o'chirish choralarini ko'rish;

vazirlikning tizim tashkilotlarning rivojlantirish jamg'armasiga mashina-mexanizmlar yordamida pudrat shartnoma tuzish orqali, vaqtincha bo'sh turgan bino-inshootlar hamda muhofaza zonalarini ijaraga berish, metallolom topshirishdan, yordamchi xo'jalik va boshqa manbalar hisobidan mablag'lar tushirish choralarini ko'rish;

korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash;

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda melioratsiya obyektlarini tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari to'liq yakunlangach, ularni foydalanishga topshirish oldidan mahalla oqsoqollari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tantanali tadbirlar o'tkazish va ularni vazirlikning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35-yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-120-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, vazirlik tasarrufidagi barcha respublika, viloyat va tuman tashkilotlarida mustaqillik bayramining bosh g‘oyasi - “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik! g‘oyasi asosida **joriy yilning iyul va avgust oylarida** har bir islohot “Inson qadri uchun” g‘oyasiga tayangan holda amalga oshirilayotganligi yuzasidan ochiq muloqotlar tashkil qilish, milliy qadriyat va asrab-avaylash, davlatchilik tamoyillarini targ‘ib qilish, ma‘rifiy va huquqiy savodxonlikni oshirish, milliy birlik va fuqarolik hamjihatligini mustahkamlash har qachongidan muhim ahamiyat kasb etuvchi xalq sayillari, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, “Uch avlod” uchrashuvlari, ko‘rgazmalar, tanlovlar tashkil etish;

mustaqillik bayrami arafasida suv xo‘jaligi sohasida ishlab, hozirda nafaqaga chiqqan, bemorligi sababli uyida yotib qolgan fuqarolar holidan xabar olish, ularni ruhiy-ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash;

xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, saxiylik, muruvvat, ahillik va hamjihatlik fazilatlarini asosida nuroniy keksalarni har tomonlama e‘zozlash, ko‘makka muhtoj insonlarga beg‘araz yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

yurtimizda millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarining amaliy natijalari, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan turli millat va elat vakillarining mustaqillik bayramini nishonlashga oid urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

bayram tadbirlari o‘tadigan joylarda hamda bayram kunlari barcha bino va inshootlarda jamoat tartibini saqlash, texnika va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash;

iqtisodiyot uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarning uzluksiz ishlashini ta‘minlash chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish;

vazirlik faoliyatiga oid muhim voqealar va tadbirlarni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, Vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

9. Vazir o‘rinbosari M.Karimov, Suv xo‘jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi (S.Atabayeva), Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va suv kadastri boshqarmasi (J.Abdurazzoqovlar)ga:

har hafta yakuni bilan o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferens-aloqa (VKA) tartibidagi o‘tkaziladigan selektor yig‘ilishlarida chuqur tahlillar asosida tanqidiy ruhda muhokama qilib borish orqali barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirilishini ta‘minlash;

har oy yakuni bilan “Davlat suv kadastri” axborot tizimida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan batafsil (tanqidiy) axborot kiritish va belgilangan topshiriqlarning ijrosi kechikishiga yo‘l qo‘ygan rahbar-xodimlarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan intizomiy jazo choralari qo‘llash yuzasidan taklif (vazirlik buyruq loyihasini) kiritib borish;

ikki oy muddatda 16 281 ta xo‘jaliklararo gidropostlarning joylashuv nuqtalarini aniq manzilli ro‘yxatini shakllantirish ishlarini to‘liq yakuniga yetkazish;

1-dekabrqa qadar Suv xo‘jaligi sohasida ishlab chiqilgan axborot tizimlarini (2-bosqich axborot tizimini texnik topshiriq talablariga muvofiqligi yuzasidan) hamda (3-bosqich axborot tizimini axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan) “Kiberxavfsizlik markazi” davlat muassasasidan ekspertizadan o‘tkazish;

10 dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-maydagi PQ–4328-sonli qarori talablari asosida “Davlat suv kadastri” axborot tizimini “Kiberxavsizlik markazi” DMning 3-bosqichda axborot tizimi va resurslarini kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlikligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish ishlarini yakunlab, Farmonda belgilangan vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan real vaqt rejimida integratsiya qilish choralari ko‘rish vazifalari topshirilsin.

10. Mazkur hay‘at yig‘ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazirning birinchi o‘rinbosari-Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev va M.Karimovlarga yuklab, uni nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay‘at a‘zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to‘lg‘azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

II. 2026-yilning II choragida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni baholash haqida.

(Xamrayev, Xodjiaxmedov, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Xamrayev)

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha Vazir maslahatchisi- Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limi boshlig‘i D.Xodjiaxmedov tomonidan Suv xo‘jaligi vaziri va o‘rinbosarlari tomonidan joriy yilning II choragida faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan yuzasidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, tahlil va muhokama qilib chiqib, 2026-yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ularning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay‘at yig‘ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 27-apreldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari faoliyatining 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 205-son qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilning II choragida eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilab qo‘yilsinki, hisobot davrida faoliyat samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qoniqarsiz deb topilganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son hamda PF–22-sonli Farmonlari bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosi ta‘minlanmagan taqdirda vazir o‘rinbosarlarining mas‘uliyati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq **egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan tegishli intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.**

2. Vazirning birinchi o‘rinbosari - Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev, M.Karimov, Vazirning maslahatchisi - Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo‘limi

boshlig'i D.Xodjiaxmedov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga:

Davlat Rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari hamda 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-son qarori bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashni tashkil etish;

Davlat Rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari hamda 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini har hafta yakuni bilan ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida tanqidiy ruhda muhokama qilib joriy yilning III choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

2026-yilning III choragiga belgilangan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (intizomiy jazo chorasini qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

3. Vazirlik huzuridagi Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori N.Xo'jaqulov, Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i R.Raximov, ushbu inspeksiya boshlig'i o'rinbosari Z.Irisboyev va Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari I.Jo'rayevlar har hafta yakuni bilan 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha III chorakka belgilangan asosiy mezon ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlikning Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo'limiga taqdim etib borsin.

4. Vazirning maslahatchisi - Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo'limi boshlig'i D.Xodjiaxmedovga:

har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli Farmonlari, Davlat dasturi doirasida joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda Ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturidagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bo'yicha alohida jild (papka) tashkil qilish, har bir topshiriq ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni unga jamlash, mas'ul ijrochilar bilan birgalikda har bir topshiriq bo'yicha jadval (chap-o'ng) shaklida tahliliy ma'lumotlar qilish, muddati kelmagan topshiriqlar bo'yicha ijroning borishi, ko'rilgan choralar va qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish, ijrosi ta'minlangan topshiriqlar to'g'risida tegishli ma'lumot va hisobotlarni naryadlarda tikilgan holda taqdim etish;

har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasiga, O'zbekiston mahallalari uyushmasiga, Strategik rivojlanish va islohotlar agentligiga, Taraqqiyot strategiyasi" markazi va "Yuksalish" harakatiga axborot taqdim etib borish;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ning hisobot davri (choraklik) yakuni bo'yicha natijalarni (ma'lumot va tahliliy materiallarni) hay'at yig'ilishi muhokamasiga kiritib borish;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar amalga oshirilgan ishlarni baholash yakunlarini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritib borish hamda unda Vazir va vazir o'rinbosarlari faoliyatining samaradorligi reytingini baholash borasida hamkorlikda ishlash;

har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar Vazir va vazir o'rinbosarlarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

ushbu Farmonlar, Davlat dasturi doirasida joriy yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda Ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturidagi topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish vazifalari yuklatilsin.

5. Axborot xizmati boshlig'i Sh.Suyunov O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi Vaziri va vazir o'rinbosarlarining 2026-yil faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, tele va radiokanallar, vazirlikning rasmiy veb-sayti, Vazirlikning Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni Vazirning maslahatchisi - Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo'limi boshlig'i D.Xodjiaxmedovga yuklab, uni nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-393-son qarori ijrosini so'zsiz ta'minlash, 2026 yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda meliorativ obyektlarni tizimli ta'mirlash-tiklash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda "Suvqurilishinvest" davlat muassasalarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish to'g'risida.

(Xamrayev, Xo'jaqulov, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Xamrayev)

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xo'jaqulov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 dekabrdagi PQ-393-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan yuzasidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, tahlil va muhokama qilib chiqib, 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 dekabrda PQ-393-son qarori ijrosini so‘zsiz ta‘minlash, 2026-yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan joriy yilning I yarmida belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar ***talab darajasida emas deb topilsin.***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlarda bayon etilgan ko‘rsatma va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas‘uliyat va javobgarlikni, har bir prognoz ko‘rsatkich ijrosini ta‘minlamaslik holatlari uchun ***intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o‘tilsin.***

2. Vazir o‘rinbosari O‘.Sheraliyev, Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xujaqulov, Suv xo‘jaligida istiqbolli loyihalarni shakllantirish bo‘limi boshlig‘i M.Qurbonovga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 dekabrda PQ-393-son qarori ijrosini so‘zsiz ta‘minlash, 2026-yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini tashkil etish bo‘yicha ***qat‘iyatlik va talabchanlik yetishmayotganligi ko‘rsatib o‘tilsin.***

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 dekabrda PQ-393-son qarori ijrosini so‘zsiz ta‘minlash, 2026-yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda meliorativ obyektlarni tizimli ta‘mirlash-tiklash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan joriy yilning I yarmida belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlashda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar hamda xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining:

2026-yil 27-aprelda 19-k-sonli buyrug‘i bilan “Farg‘onasuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori O.Abdullayev;

2026-yil 3-iyundagi 22-k-sonli buyrug‘i bilan “Surxondaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori A.Abduraximov;

2026-yil 8-iyundagi 25-k-sonli buyrug‘i bilan “Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori O.Islomov;

2026-yil 10-iyundagi 26-k-sonli buyrug‘i bilan “Sirdaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori A.Eshtemirov;

2026-yil 12-iyundagi 27-k-sonli buyrug‘i bilan “Andijonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori I.Xolmirzayev;

2026-yil 7-iyuldagi 29-k-sonli buyrug‘i bilan “Navoiysuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori U.Nazarov egallab turgan ***lavozimidan ozod etilganligi;***

2026-yil 1-aprelda 11-sonli buyrug‘i bilan “Qoraqalpog‘istonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchisi A.Kaypov;

2026-yil 4-iyundagi 20-sonli buyrug‘i bilan “Namangansuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori T.Tadjibayevga nisbatan ***“Hayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.***

4. Vazir o‘rinbosari O‘.Sheraliyev Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xujaqulov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari

rahbarlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 dekabrda PQ-393-son qarori ijrosini so'zsiz ta'minlash, 2026-yilgi Davlat dasturi doirasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan joriy yilning II yarmida bajarilishi belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilsin.

5. Vazir o'rinbosari O'.Sheraliyev, Suv xo'jaligida istiqbolli loyihalarni shakllantirish bo'limi (M.Qurbonov), Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xujaqulov) Samarqand, Sirdaryo va Buxoro "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari bilan birgalikda tegishliligi bo'yicha 2 ta obyektga moliyalashtirish ochish va 2 ta obyektning manzilli dasturdan chiqarish masalalarini hal etish choralari ko'rsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari rahbarlariga:

3 kun muddatda joylarda 2026-yilning yilning I yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash, vazirlikka taqdim qilish hamda uning ijrosi haqida har oy yakuni bilan Vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilib borish;

joriy yil 1-avgustga qadar 2027-yilda yangidan boshlanadigan 94 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining loyiha-smeta hujjatlariga "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi" DMning ijobiy ekspertiza xulosalarini olish;

joriy yil 1-dekabrga qadar 293 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektlarida 1 024,6 km kanallarni betonlashtirish, 35,2 km lotok va 44,7 km yopiq quvur tarmoqlari, 40 ta gidrotexnika inshooti, 46 ta sug'orish qudug'i, 18,3 m³/sek suv chiqarish quvvatiga ega bo'lgan nasos stansiyalari, 36,3 km nasos stansiyalarining bosimli quvurlari, 330,6 km kollektor-drenaj tarmoqlari, 22 ta tik drenaj quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda 14,2 km qirg'oq himoya ishlarini yakunlash;

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari to'liq yakunlangach, ularni foydalanishga topshirish oldidan mahalla oqsoqollari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tantanali tadbirlar o'tkazish va ularni vazirlikning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilishini tashkil etish;

joriy yil 25-dekabrga qadar 259 ta (221 ta irrigatsiya, 38 ta melioratsiya) obyektida qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlanib, belgilangan tartibda foydalanishga topshirish vazifalari yuklatilsin.

7. Vazir o'rinbosari O'.Sheraliyev, Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xujaqulov) "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari bilan birgalikda 2026-yil manzilli ro'yxatiga qo'shimcha kiritilgan 47 ta suv omborlarning xavfsiz ekspluatatsiya qilinishini ta'minlash obyektlari bo'yicha:

joriy yil 25-iyulga qadar loyiha-smeta hujjatlarini to'liq ishlab chiqilishini yakunlash;

joriy yil 25-avgustga qadar loyiha-smeta hujjatlarini shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan va talab bo'yicha kompleks ekspertizadan o'tkazish;

joriy yil 10-sentyabrga qadar belgilangan tartibda pudrat tashkilotlarini aniqlash va moliyalashtirish ochish;

joriy yil 25-dekabrga qadar 2026-yilda bajarilishi belgilangan ish turlarini to'liq bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

8. Vazir o'rinbosari O'.Sheraliyevga Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xujaqulov bilan birgalikda **har oyda** "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda

PQ-393-son qarori hamda 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) tartibidagi o'tkaziladigan selektor yig'ilishlarida chuqur tahlillar asosida tanqidiy ruhda muhokama qilib borish orqali belgilangan topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi ustidan nazorat, qat'iyatlik va talabchanlikni kuchaytirish vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazir o'rinbosari O'.Sheraliyevga yuklab, uni nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

IV. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 1-iyundagi “Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va uni yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida”gi 11.1/10/26-137-sonli Taqdimnomasi haqida.

(Xamrayev, Rajabov, Sheraliyev, Karimov, Qarshiyev, Ishpulatov, Xamrayev)

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha Yuridik xizmat va murojaatlar bilan ishlar boshqarmasi boshlig'i B.Rajabov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 1-iyundagi “Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va uni yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida”gi 11.1/10/26-137-sonli Taqdimnomasi o'qib eshittirilib, taqdimnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar va qonun buzilishi holatlarining kelib chiqishiga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish, kelgusida bunday holatlarning kelib chiqishini oldini olish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 1-iyundagi “Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va uni yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida”gi 11.1/10/26-137-sonli taqdimnomasi **ijro uchun qabul qilinsin.**

2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 1-iyundagi 11.1/10/26-137-sonli taqdimnomasida qayd etilgan xato-kamchiliklar va qonun buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablari hamda unga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan **chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

Belgilab qo'yilsinki, ushbu taqdimnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar va qonun buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablari hamda unga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan topshiriqlarning o'rnatilgan muddatlarda, to'laqonli va sifatli qilib bajarilishini ta'minlashga vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tizim tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadilar.

3. Taqdimnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar va qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yanligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori va boshqa qonun hujjatlari bilan Suv xo'jaligi vazirligi tizimiga yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini bajarish yetarli darajada tashkil etilmaganligi uchun Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining 2026-yil 15-yanvardagi 2-k-sonli buyrug'i bilan “Samarqandsuvqurilishinvest” davlat muassasasi bosh muhandisi A.Fayziyev, 2026-yil

8-iyundagi 25-k-sonli buyrug‘i bilan “Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori O.Islomov, 2026-yil 10-iyundagi 26-k-sonli buyrug‘i bilan “Sirdaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori A.Eshtemirov, 2026-yil 12-iyundagi 27-k-sonli buyrug‘i bilan “Andijonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori I.Xolmirzayevlarning ***egallab turgan lavozimidan ozod etilganligi inobatga olinsin.***

4. Vazirlikning 2026-yil 6-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbari o‘rinbosarining 2026-yil 27-martdagi 5-sonli bayoni topshiriqlari ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 91-sonli buyrug‘i bilan Prezident Administratsiyasi rahbari o‘rinbosarining 2026-yil 27-martdagi 5-sonli bayonida qayd etilgan xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilmaganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar, 2025-2026 yillarga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta’minlamaganligi hamda ijro intizomiga rioya qilmaganligi uchun Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori v.b S.Astanov, Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xo‘jaqulov, Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi boshlig‘i v.b D.Kdirbayev, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i v.b A.Tagayevlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan ***“hayfsan”*** intizomiy jazo chorasini qo‘llanilganligi;

vazirlikning 2026-yil 7-apreldagi “Intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risida”gi 92-sonli buyrug‘i bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2026-yil hosili uchun sho‘r yuvish ishlarini amalga oshirishda sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi uchun Chimboy tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori R.Qudaybergenov, Kegeyli tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori K.Uzakbergenov, Shumanay tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori B.Xo‘janazarovlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan ***“hayfsan”*** intizomiy jazo chorasini qo‘llanilganligi;

vazirlikning 2026-yil 8-apreldagi “Intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risida”gi 93-sonli buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni ijrosini ta’minlashga mas’uliyatsizlik bilan yondoshganligi, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi uchun Andijon viloyati Ulug‘nor tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori A.Xaydarov va Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori A.Ibragimovlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan ***“hayfsan”*** intizomiy jazo chorasini qo‘llanilganligi;

vazirlikning 2026-yil 26-iyundagi “Intizomiy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risida”gi 153-sonli buyrug‘i bilan o‘zining zimmasiga yuklatilgan xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi uchun Xo‘jayli tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori E.Kalmuratov, Pastdarg‘om tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori A.Turayev, Koson tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori E.Sayfilov, Qarshi tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori Sh.Raxmonov, Ohangaron tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori A.Aliqulov, Qo‘rg‘ontepa tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori S.Turg‘unov, G‘ijduvon tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori

B.Xolov, G'allaorol tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori O.G'aniyev, Qiziriq tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori M.Ne'matov, Sariosiyo tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori R.Turdiyev, Muzrabot tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori A.Amonturdiyev, Buvayda tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori Y.Nazarov, Pop tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori o'rinbosari A.Xidirov hamda Uchko'prik tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori o'rinbosari A.Soyibjonovlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **"hayfsan"** intizomiy jazo chorasi qo'llanilganligi;

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i F.Siddiqov, Sardoba tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori A.Bo'ronov, Pastdarg'om tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori A.To'rayev, Farg'ona tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori D.Yuldashev, Xatirchi tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori X.Islomovlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **"hayfsan"** intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028 yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-250-sonli qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlari bilan Suv xo'jaligi vazirligi tizim tashkilotlariga yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosi yetarli darajada tashkil etmaganligi uchun vazirlikning Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish bo'limi boshlig'i B.Yunusov, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i v.b A.Tagayev, Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xo'jakulov, Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayeva, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Irrigatsiya tizimlari va yirik gidrotexnik inshootlaridan foydalanish boshqarmasi boshlig'i N.Xudoyberdiyev, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig'i O.Abdullayev, Melioratsiya obyektlaridan va mexanizmlaridan foydalanish bo'limi boshlig'i R.Kamilovlar intizomiy jazoga tortilishi haqida **so'nggi marotaba ogohlantirilsin.**

6. Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari M.Karimov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida mazkur yig'ilish qarorini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, taqdimnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar va qonun buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablari hamda unga imkoniyat yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish;

ushbu taqdimnomada qayd etilgan holatlarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan topshiriqlarning o'rnatilgan muddatlarda, to'laqonli va sifatli qilib ta'minlanishi yuzasidan tizimli monitoring o'rnatish;

har 15 kunda amalga oshirilayotgan ishlarni vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida tanqidiy ruhda muhokama qilib, barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

har oy yakuni bilan loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda tahlil qilib borish. Taqdimnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar qonun buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablari hamda unga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan xizmat vazifasini bajarishga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi tayyorlash*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

7. Mazkur yig'ilish bayoni topshiriqlarining ijrosini nazorat qilish, har oy yakuni bilan tanqidiy muhokama qilib, vazifalarning belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay'at yig'ilishi yakunida hay'at raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga bugungi hay'at yig'ilishi qabul qilgan qaror asosida **ikki kun muddatda** joylarda 2026 yilning I yarmi davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari hamda Baliqchilikni rivojlantirish markazining har oyga (*kunlik*) qilib ish rejalarini ishlab chiqish va uning ijrosini tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev